



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
MUSIQA kafedrası

MUSIQA O'QITISHDA
INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
F A N I D A N 3-KURS TALABALARIGA 6 SOATGA
MO'LJALLANGAN MARUZA MATNLARI



Navoiy-2015

Tuzuvchi :

o`qituvchi Sh.M.Majitov

Musiqa kafedrasining 2015 yil 26- avgust yig`ilishida
muhokama qilinib, o`quv jarayoniga
foydalanish uchun tavsiya qilingan.

Kirish

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Ta’lim berishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o’quv-uslubiy majmualarini yaratish va o’quv – tajriba jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” umumiy o’rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Prezidentimiz I.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz forovonligini yuksaltirishdir” mavzusidagi Vazirlar mahkamasining majlisidagi nutqida: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog’lom o’sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo’lgan, uyg’un rivojlangan insonlar bo’lib, XXI asr talablariga to’liq javob beradigan barkamol avlod bo’lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz”, - degan edi.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e’tibor ta’lim tizimini va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko’zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta’lim tizimining barcha shakldagi muassasalarida ta’lim jarayonini ilg’or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyat bilan amalda ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko’ra fan, texnika va ilg’or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo’lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko’rgan va o’z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o’quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o’qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o’qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o’quv–tarbiyaviy mashg’ulotlarda qo’llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

1-MAVZU;MO'SIQA O'QITISHDA INAVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR FANI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1. Pedagogik texnologiyaning darajalari va asosiy yo'nalishlari

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ro'hiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Bu muhim vazifani amalga oshirish umumta'lim muassasalarida o'qitishning an'anaviy metodlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qo'shib olib borishni taqazo etadi.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualari yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash"ga bog'liqligi ko'rsatiladi. Pedagogik texnologiyalar o'zi nima?

"Texnologiya" yunoncha **"texnos"-mahorat, san'at va "logos"- fan, ta'limot** so'zlaridan tashkil topgan.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi tushunchasi esa lug'aviy jihatdan (inglizcha **"an educational technology"**) **ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan** (yoki ta'limot) ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega bo'lib, ya'ni, har bir pedagog ta'lim-tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday **shakl, metod va vositalar** yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayoni)ning samaradorligini oshirishi;**
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;**
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;**
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;**
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;**
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.**

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya-ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan jarayon. Bu jarayon ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish orqali o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya darajalari

Pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o'quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

Umumpedagogik texnologiya turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi, ta'lim muassasasidagi yoki ta'limning ayrim pog'onasidagi barcha ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo'ladi. Umumpedagogik texnologiya o'z hududi yoki ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar, mazmun, vositalar, boshqaruv shakli va usullari, o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Xususiy texnologiya ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o'z ichiga oladi. Bunda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari, rahbarning, o'qituvchining, tarbiyachining va o'quvchining ishlash texnologiyalari kiradi.

Kichik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining alohida qismlarini o'z ichiga oladi. U ayrim didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni hal qilish bilan shug'ullanadi. Bularga darslar texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va mustaqil ishlash texnologiyalari, o'quv materiallarini takrorlash, o'zlashtirishni va tarbiyalanganlikni nazorat qilish texnologiyalarini hamda ayrim tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish texnologiyalari kiradi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari

Pedagogik texnologiya yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar.

Hozirgi an'anaviy ta'lim XVII asrda Ya.A. Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Hamkorlik texnologiyasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar, konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi optimal mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondoshish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga takomillashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning

tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari **xususiy (o'quv fanlari)** pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda **mualliflik** pedagogik texnologiyalari ham mavjud.

Bulardan tashqari hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari bor bo'lib, ulardan asosiylari **empirik, kognitiv, evristik, kreativ, integrativ, adaptiv** pedagogik texnologiyalardan iborat.

Empirik-sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. Tabaqalashtiruvchi (bilim o'rganishda tarkibiy qismlarga ajratish) tafakkurni shakllantiradi, bilim ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik- yo'naltiruvchi ta'lim berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. **topqirlik, faollikni** rivojlantirishga xizmat qiluvchi, **o'quv-izlanish** ta'lim metodi. Optimallashtirilgan (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiqini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ-tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni **jadal** rivojlantiradi.

Inversion-axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini rivojlantiradi.

Integrativ-axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarini o'zaro ajralmas bog'liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv –axborotlarni o'rganish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga zriishish.

Inklyuziv-o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar.

Metodika- biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. Alohida metodikalarni tashkil qiladi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar. Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi. Ular orasidagi farqlar quyidagicha.

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar.


Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
Ta'riflar	Pedagogik texnologiya -insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat	Metodika -ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi fanlar
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning yuqori sifatda bo'lishini ta'minlash
Qo'llash miqyosi	Barcha ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning yuqori sifatda bo'lishini ta'minlash
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alohida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'lim va tarbiya texnologiyasi asosida Ta'lim menejmenti va marketingi Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Yetarli mutaxassislikka ega. Mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar ta'minlanadi.	Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalari asosida rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. BIR muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bundan esa natijalar har kimda har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.
Tarkibiy tuzilishi	Muntazam tizimni tashkil qiluvchi modullarga ega	Modullar o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga muvofiq o'zgaruvchan
Amaga oshirish bosqichlari	Muntazam algoritmlar tizimiga muvofiq amalga oshiriladi	Algoritmlar o'qituvchining individual ishlash usuliga muvofiq o'zgaruvchan
Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. SHu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijaga erishadilar

Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari



Pedagogik motivlar

Pedagogik texnologiya o'z vazifasi bo'lgan ijtimoiy buyurtmani bajarib, jamiyat, ota-ona, o'qituvchi, o'qituvchining ehtiyoj, manfaat, maqsadlariga muvofiq bo'lgan motivlarini qondirishga xizmat qiladi



2-MAVZU;O`QUVCHI SHAXSINING RIVOJLANISHI UCHUN QULAY IJTIMOIIY PSIXOLOGIK VA DO`STONA MUHIT YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq.

Bugungi kunda ta'lim sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanmoqda.

Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamli axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, kadrlar tayyorlashda yagona davlat talablari asosida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quv-adabiyotlari bilan ta'minlash, pedagoglarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish ishlariga bo'shatib bermoqda.

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o'quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq, mazkur ta'lim muassasalari ta'lim – tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm – fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb – hunarli, Ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Bu kundagi o'qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o'tish bilan chegaralanmasdan balki, ta'limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o'quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi o'quvchilarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini bermoqda. SHu o'rinda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasi, xotirada saqlash va uni qo'llash imkoniyatlarini yuksaltirish maqsadida interfaol elektron doskalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda qo'l keladi. Bunda foydalanayotgan texnologiyalarni barcha imkoniyatlari mujassamlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Xozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim sohasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmiy, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soha sifatida rivojlanib bormoqda.

Xar bir pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo'llarini bandma-band aniqlash va unga so'zsiz erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiyani har tomonlama puxta o'ylangan pedagogik loyihalashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va albatta o'quvchi va pedagog uchun erkin, qulay shart-sharoit yaratish orqali xamjihatlikda ishlab chiqilgan model desak bo'ladi.

Ta'lim jarayonida shaxsga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. SHaxs bu jarayonda qanday vazifani bajarishi kerak - maqsad vazifasini yoki unga erishish uchun vosita vazifasini?

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bola shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. O'quvchi shaxsi bu texnologiyada nafaqat sub'ekt balki keng imkon berilgan sub'ekt bo'lib u ta'lim tizimidagi asosiy bo'lmagan maqsadlarga erishish vositasi emas, balki uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning yana bir muhim tarafi ta'lim jarayonidagi bolaning o'rni va unga kattalarning munosabatidir.

Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda o'quvchi shaxsining individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiylaridan biri –bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu tabiiy tizim hisoblanib, o'quvchining noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o'ziga hos qobiliyatlarini va psixologik yo'nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi insoniylik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. Pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil,ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan butun bir noyob bolaning shaxsi turmog'i lozim. O'quvchiga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni shaxs tomonidan zabt etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi.

Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar (muammoli-izlanish, tadqiqot, dialog, evristik suhbat, munozara, guruhlarda ishlash) dan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab neytral bo'lgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv hususiyat kasb etsin.

Buning uchun o'quv materiallari mazmuni o'qituvchi tomonida o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan, ijodiy yondoshgan holda qayta ishlanadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quv jarayonini loyihalashning o'ziga hos tomonlarini hisobga olishni, ya'ni o'quvchi shaxsi modeliga avvaldan belgilab qo'yilgan talablardan yiroq bo'lishni taqozo etadi. Ijtimoiy o'sish jarayonlarining shaxsga bo'lgan ta'sirini xisobga olgan holda talim jarayonida har bir o'quvchi o'zini yoshlik davri nashidasini sezishi, balog'at davrida erkin, mustaqil,ijodkor va har tomonlama barkamol inson bo'lib o'sishini hisobga olish zarur omillardan biridir

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining asosiy printsiplari o'quvchining individualligini tan olish va uning rivojlanishi uchun zarur va yetarli sharoit yaratishdir. Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olib, individual ishlash uchun o'quv jarayonini o'zgacha tashkillashtirish lozim bo'ladi. Buning uchun o'quv matnlari, didaktik materiallar, ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar, o'quv dialogi shakllari, o'quvchilar bilimini nazorat qilish shakllari maxsus loyihalashtirilib, o'quvchilarning bilim olishi va rivojlanishiga qaratiladi. SHaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik jarayon shaxsda belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi. Pedagogik jarayon bu belgilangan maqsadga erishish hamda shaxsning xususiyat va sifatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aniq bir muddat va ma'lum tarbiyaviy tizimda maxsus tashkil etilgan o'zaro munosabat. Jarayon holat davomiyligi, insonning rivojlanishi, biror bir natijaga erishishi yo'lidan uzviy davom etayotgan harakatlar jamlanmasi. Pedagogik jarayon-tarbiya jarayonining asosiy tizim birligi. Uning xususiyati shundan iboratki, u o'qituvchi va o'quvchining pedagogik munosabat tizimini belgilaydi.

Agar tarbiya jarayoni tushunchasi maqsadga yo'naltirilgan shaxsga ma'lum sifatlarni shakllanish ta'sirini amalga oshirishga qaratilgan harakat bo'lsa, pedagogik jarayon tushunchasi oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o'zaro ta'sir tizimini bildiradi.

Bunday ish turida **ta'lim jarayonining vazifalari**:

- o'quvchilarni bilim olish faoliyatini kuchaytirish;
- bilim olish faoliyatini takomillashtirish;
- fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- dialektik- dunyoqarash va insonparvar-estetik madaniyatini shakllantirish;
- ta'lim(tarbiya) malakalarini takomillashtirish.

Pedagogik jarayonning asosiy vazifalari:

Ta'lim beruvchi- ilmiy bilim asoslarini o'zlashtirish, amaliy faoliyat va o'quv tarbiyaviy tajribaning motivatsion shakllanishi;

Tarbiyaviy- odamlar munosabatidagi ma'lum bir sifat, xususiyatning shakllanishi;

Rivojlantiruvchi- shaxsning psixik jarayoni, xususiyati va sifatining shakllanishi hamda rivojlanishi;

O'quv jarayonining tarkibiy komponentlari:

1. Tahlil, sintez, taqqoslash, tizimlash.
2. Ilmiy qarash va qonuniyatlarni bilish, sababli aloqalarni tushunish, anglash.
3. Mahorat egallash va tizimlash.
4. Amaliyotda mavjud muammolarni mustaqil hal etish faoliyati.
5. O'z-o'zini nazorat qilish, erishilgan bilimlarni tashxis qilish.
6. Faoliyat natijasining ideal darajada bo'lishini oldindan bilish.

SHaxsga yo'naltirilgan jarayonning didaktik ta'minlashni ishlab chiqishda quyidagi asosiy talablarga rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- o'quv materiali o'quvchining o'ziga xos tajribasini namoyon qilishga va avval o'zlashtirgan bilimlarini qamrab olgan holda tuzish;
- darslikdagi o'quv materialining bayoni (o'qituvchi tomonidan) nafaqat hajmini kengaytirish, yaxlitlash, mazmunini umumlashirish balki har bir o'quvchining shaxsiy tajribasini o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi;
- o'qitish jarayonida o'quvchi tajribasini doimo berilayotgan bilimlarning ilmiy mazmuni bilan muvofiqlashtirib borish;
- o'quvchi bilim olish jarayonida o'zining bilimini oshirishga, rivojlantirishga, fikrini ifodalashga imkoniyat yaratish;
- o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchi vazifalarni bajarish tartibini o'zi tanlay olish imkoniga ega bo'lishi;
- o'quvchilarni mustaqil ishlashga va o'zi uchun o'quv materialini o'zlashtirishi qulay bo'lgan usullardan foydalanishga imkon yaratish;
- o'quv materiallarini bajarishga umumiy tushunchalar berishda fanning o'ziga xos tomonlarini shaxsning rivojlanishidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish;
- o'quvchilarning nafaqat erishgan natijalarini, balki o'qish jarayonini, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish vaqtida bajarayotgan faoliyatlarini nazorat qilish va baholab borish.

Har bir o'quvchining rivojlanishi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun quyidagilarni o'z ichiga olgan o'quv muhitini tashkil qilish lozim:

- turli mazmun, shakl va turdagi o'quv materiallarini tayyorlash va foydalanish;
- o'quvchiga topshiriqlar berganda unga topshiriqni bajarish usullarini tanlash imkonini berish;
- o'quvchilarni ijodiy faollashtirish maqsadida, noan'anaviy, yakka va guruhda ishlash shakllaridan foydalanish;
- mustaqil va ommaviy ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratish;
- mashg'ulotlarda kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish (trening, imitatsion-rolli o'yinlar, dialog);
- individual dasturlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish;
- loyihalash metodidan foydalanib o'quv jarayonini tashkil qilish;

O'qituvchi shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib o'z-o'zini namoyon qila olsun. Ta'lim jarayoni nafaqat informatsion, balki, rivojlantiruvchi ham bo'lishi kerak. O'qituvchining har bir o'quvchining xulqini, bajarayotgan faoliyatini kuzatib, ma'lumotlar bankini to'ldirib borishi va bu ma'lumotlardan shakllantirilgan o'quvchining "portreti"dan (tafakkuri, fanlarga qiziqishi, diqqati va boshqalar) ta'lim berishda foydalanishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

SHaxsga yo'naltirilgan darsning asosiy talablari

Maqsad: bilim olish faolligini namoyon qilish uchun sharoit yaratish.

Maqsadga erishish vositalari:

- o'quvchilarning sub'ektiv tajribalarini aniqlashga imkon beradigan o'quv faoliyatining turli shakllari va usullaridan foydalanish;
- dars jarayonida butun sinfnig faolligini oshirish uchun muhit yaratish;

- o'quvchilarning o'z fikrini bildirishga, xato qilishga yoki noto'g'ri javob olishga cho'chimasdan topshiriqlarni bajarishda turli usullardan foydalanish;
- o'quvchi faoliyatini faqatgina natijaga qarab emas (to'g'ri, noto'g'ri) balki ushbu natijaga erishish jarayoniga qarab baholash;
- o'quvchining qanday usulda ishlashni (masalani yechimini topish) o'zi tanlashga intilishiga sharoit yaratish, dars davomida boshqa o'quvchilarning ish usullarini tahlil qilish, eng qulay usullarni tanlash, o'zlashtirish;
- o'quvchiga tazyiq o'tkazmaslik hamda kamchiligini bo'rttirmaslik;
- past o'zlashtirish, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o'quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
- dars jarayonida "muvaffaqiyat muhitini" yaratish, o'quvchiga o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini o'rttirishdan iboratdir.

Individual shaxsni rivojlantirish maqsadida o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llari

Topshiriq turlari:

1. O'z-o'zini anglash imkonini beruvchi topshiriqlar (o'qituvchining o'quvchilarga murojaati "O'zingni angla, o'zing bilib ol" jumalari bilan ifodalanadi):

- o'z-o'zini baholash (o'qituvchining tayyorlagan rejasi, sxemasi, algoritmi bo'yicha bajarilgan ishni tekshirish, xatolarini tahlil qilish);
- mazmun bo'yicha bajarilgan ishning usulini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash (masalaning yechish usulini ratsionalligi, insho rejasining ifodaliligi, laboratoriya ishidagi amallarning ketma-ketligi);
- o'quvchini o'quv faoliyat sub'ekti sifatida o'z-o'zini baholashi (o'z ishini rejalashtira olamanmi, o'z harakatlarimni tashkil qila olamanmi, erishgan natijalarimni baholay olamanmi);
- o'quv faoliyatida o'zining ishtirokini baholashi (faollik darajasi, boshqa ishtirokchilar bilan hamkorligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi);
- darsni hamda uy vazifasini bilish qobiliyatlarini aniqlash (diqqat, idrok, xotira va boshqalar);
- "Ko'zguli topshiriqlar" - o'quv mazmunida berilgan qahramonlarda o'zining shaxsiy xususiyatlarini topish (masalan, adabiyot fanida).

2. O'z o'rnini belgilab olishga imkoniyat beruvchi topshiriqlar (o'qituvchining o'quvchiga murojaati "O'zing tanla" jumlasini bilan ifodalanadi):

- turli o'quv mavzuni asosli tanlash;
- turli yo'nalishlardagi sifatli topshiriqlarni tanlash (kreativlik, nazariy, ixchamligi va boshqalar);
- o'quv balining darajasiga mos keladigan o'quv faoliyatini tanlash imkonini beruvchi topshiriqlar;
- o'quv faoliyati usulini asosli tanlash imkonini yaratuvchi topshiriqlar (o'qituvchi va sinfdoshlar bilan o'zaro aloqa qilish usullari, vazifalarni kim bilan va qanday bajarish);

– o'quv faoliyatini tanlash (qisqa vaqt davomida mavzuni o'zlashtirish, mavzuni bo'laklarga bo'lib o'zlashtirish);

– o'quvchilar tomonidan qaysi yo'nalishda rivojlanishini tanlash.

3. O'quvchilarni hamkorlikda rivojlanishiga qaratilgan topshiriqlar ("Hamkorlikda ijod qiling"):

- turli texnologiya va shakllardan foydalanib, guruhlarda ijodiy ishlash: "aqliy hujum", rolli o'yinlar, guruhlarda ishlash, proekt metodi va boshqalar;

- birgalikda bajaraladigan "oddiy" ijodiy topshiriqlar (jamoalar bilan, juftliklarda insho yozish, guruhlarga bo'lib laboratoriya ishini yozish va boshqalar);

- guruhlarda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga vazifalarni, o'rnini bo'lib bergan holda birgalikda ijodiy topshiriqni bajarish: guruh boshlig'i, "bezatuvchi", eksport-kontrolyor va boshqalar;

- rollarni taqsimlab, ijodiy rolli o'yinlar tashkil qilish (taqsimlangan rollar o'zaro bog'langan, ijodiy namoyon bo'lishga imkon berishi, individual va umumiy ijodiy natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak);

- birgalikda ishlashda ishtirokchilarning o'zaro hamjihatligini ko'zlagan topshiriqlar (masalan, o'zining nerv sistemasining xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tajribalar yoki chet tilida bir-biridan intervyu olish);

- faoliyatning natijasi va jarayonini birgalikda tahlil qilish (masalan, guruhning har bir vakili tomonidan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini muhokama qilish, guruh ishini baholash);

- o'quv faoliyatining individual maqsadi va rejasini ishlab chiqishda bir-biriga yordam berish (laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha rejasini birgalikda tuzish, nazorat ishiga tayyorlanish bo'yicha individual rejani birgalikda ishlab chiqish);

4. O'zini o'zgartirish, rivojlanishga qaratilgan topshiriqlar va birgalikda ishlash usullari ("O'zing uchun o'zingni o'zgartir"):

- o'quv faoliyatini bahosiz bajarish bo'yicha topshiriqlar (masalan, uyda turli masalalarni ishlab kelish bo'yicha yo'llanma berish);

- o'quvchi tomonidan o'z xohishi bilan o'zining bajargan faoliyat natijalarini tahlil qilishi;

- bir necha masalalarni yechib bo'lgach (masalan, matematik masalalar) o'qituvchi tomonidan berilgan mezonlar asosida har bir o'quvchi tomonidan o'z ishini baholash;

- o'qishdagi shaxsiy istiqbollarni belgilab olishga qaratilgan topshiriqlar (o'quv faoliyati natijalarini rejalashtirish, shakl, muddatlarini rejalashtirish);

- o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan sub'ektiv murakkab mashg'ulotlar va vaziyatlar (masalan, tarix fanidan ma'ruza yozish, lekin ma'ruza baholanmaydi, oldingi qilingan ma'ruzalar bilan taqqoslanib, natijalari tahlil qilinadi);

- turli xususiyatlarni (sabr, ijod, o'zaro ta'sir qilish va boshqalar) namoyon bo'lishini talab etuvchi, o'quvchi o'z xohishidan kelib chiqib tanlay oladigan topshiriqlar (baholanmaydi);

- kasbiy qiziqishidan kelib chiqib tanlashga imkon yaratuvchi topshiriqlar.

Pedagogning mahorati Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmunini belgilab, o'qitishning optimal metod va usullarini qo'llay bilishda. Ta'lim texnologiyasi - quyidagilarni o'z ichiga qamrab olgan sistemali darajadir:

- ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsad;
- ta'lim mazmuni;
- pedagogik xamkorlik vositalari;
- o'quv jarayonini tashkil qilish;
- o'quvchi-o'qituvchi;
- faoliyat natijasi.

“Pedagogik texnologiya”ning ma'nosi keng bo'lib, “ta'lim metodikasi” dan farq qiladi. Qanday qilib eng samarali yo'l bilan ta'limni boshqarish va ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin degan savolga ana shu pedagogik texnologiya javob beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi quyidagicha tavsiflanadi:

- nomarkazlashganlik (antropotsentrik);
- insonparvarlik;
- psixoterapevtik yo'nalganligi;
- Bolaning erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini asosiy maqsad qilib qo'yishi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidagi fundamental g'oya tushuntirishdan tushunishga, monologdan dialogga, nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o'zini o'zi boshqarishga o'tishdan iborat. Pedagog asosiy urg'uni “fanni” bilishga emas aksincha, muloqotga o'zaro bir birini tushunishga harakat qilib, o'quvchini ijod qilishi uchun uni “ozod” qilishga qaratishi kerak. Ijod va izlanish o'quvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi muhitidagi borlig'ining asosi bo'lmog'i lozim. Ammo o'quvchining jismoniy, intellektual va ruhiy xolati mustaqil ravishda ta'limdagi ijodiy izlanish talab qiladigan topshiriqlarni bajarishga va hayotiy muammolarni yechishga yetarli emas. SHuning uchun unga pedagogik qo'llab-quvvatlash va yordam kerak bo'ladi. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining tavsifidagi mana shular “kalit” (Ключевые слова) so'zlardir.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi o'z ichiga quyidagi texnologiyalarni ham qamrab oladi:

- ✓ shaxsga insonparvarlik yondoshuvi;
- ✓ xamkorlik texnologiyasi;
- ✓ o'yin texnologiyasi;
- ✓ kommunikativ ta'lim texnologiyasi;
- ✓ erkin tarbiya texnologiyasi;
- ✓ bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyasi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasiga qo'yiladigan talablar:

- dialog (o'zaro suhbat);
- faollik va ijodkorlik;
- bolaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

- o'quvchiga mustaqil ijod qilishi, qaror qabul qilishi, ta'lim olish turi va uslublarini tanlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

Pedagog quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- san'at, ijodkorlik va bolaga xurmat bilan munosabatda bo'lish;
- insoniy, pedagogik pozitsiyada bo'lish;
- bolalarning ruhiy va jismoniy sog'lom bo'lishi va bolalik ekologiyasi haqida qayg'urishi;
- doimiy ravishda madaniy-informatsion, fanni rivojlantiruvchi yangiliklardan unumli foydalanib ta'lim jarayonini boyitib borishi;
- ta'lim mazmuni bilan ishlashni bilishi va ung shaxsga yo'naltirilgan shakl bera bilishi;
- har hil pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va ularga shaxsni rivojlantiruvchi yo'nalish bera olishi;
- har bir bolaning individual xususiyatlarini qo'llab-quvvatlashi va ularni rivojlantirish haqida qayg'urishi.

SHaxsga insonlarvarlik yondoshuvi texnologiyasi

Bu texnologiya avvalo shaxsni insonparvarlik yondoshuvi, psixoterapevtik yo'nalishi bilan boshqa texnologiyalardan ajralib turadi. Bular o'z o'rnida majburlashni qoralaydi va aksincha bolani har tomonlama xurmat qilish, uni yaxshi ko'rish hamda bolaning ijodkorlik imkoniyatlariga optimal ishonch bilan qarash g'oyalarini ilgari suradi. Bu texnologiyada shaxsga munosabat birlamchi bo'lib individual yondoshuv, notalabchan demokratik boshqaruv hamda yorqin insoniy qarashlar boshqa yo'nalishlardan ustun turadi.

Hamkorlik texnologiyasi.

Hamkorlik texnologiyasi pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi tenglik, demokratiya hamda sub'ektlar orasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Pedagog bilan o'quvchi xamkor va ijodkor sifatida ish yuritib birgalikda mashg'ulot mazmuni, maqsadini aniqlaydilar va birgalikda baholaydilar.

Erkin tarbiya texnologiyasi.

Erkin tarbiya texnologiyasida asosiy urg'u bolaning o'z hayotiy faoliyati davomida mustaqil fikr yuritishi va tanlash erkinligiga qaratiladi. Tanlash xuquqiga ega bo'lgan o'quvchi sub'ekt vazifasini bajarishga tashqaridan bo'lgan ta'sir ostida emas, balki o'zining ichki kechinmalaridan kelib chiqqan holda intilib a'lo darajada bajaradi. An'anaviy ta'lim tizimidagi har qanday pedagogik texnologiyaning asosida tushuntirish yotadi, lekin shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida esa tushunish va o'zaro bir birini tushunish yotadi. Bu tushunchaga V.S. Bibler shunday izoh bergan; tushuntirishda bitta ong, bitta sub'ekt ishtirok etib monologni hosil qiladi. Tushunishda ikkita ong, ikkita sub'ekt ishtirok etib o'zaro (bir birini) tushunish, dialogni hosil qiladi. Tushuntirish doim "yuqoridan past"ga bo'lgan qarash, ya'ni "so'zini o'tkazish"ni anglatadi. Tushunish esa bu muloqot, hamkorlik, o'zaro (bir birini) tushunish demakdir.

«Guruhlarda o'qitish» metodi

Komandada o'qitishda o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishni anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish

Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. SHunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan

bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi.

«Nuqtai nazaring bo'lsin» metodi.

Uslub maqsadi:

-o'quvchilar muayyan muammoga o'z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o'rganadilar;

-o'quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o'z fikrini o'zgartirish imkonini berish;

-o'qituvchi barcha o'quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o'quvchilar o'rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

«Nuqtai nazaring bo'lsin» uslubi o'quvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o'z fikrlarini o'z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o'zgartirishga ishonitiradigan g'oyalarni eshitib o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo'llanadi. O'quvchilar shuningdek, maktab, mintaq, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo'lgan eng dolzarb muammolar o'z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar.

O'quvchi ochiqdan-ochiq savollar uslubi bilan odatda dars jarayonida faol bo'lmagan o'quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.

Mashqni o'tkazish uslubiyati

1. Tayyorgarlik: o'qituvchi sinfnig to'rt burchagiga yoki sinfnig ma'lum ochiq makoniga to'rtta tablichka osib qo'yadi.

2. Sinf o'lcham yoki o'quvchilar soniga bog'liq holda olti yoki sakkiz ko'ngillini chaqiradi. Bordi-yu, o'yinda sinf o'quvchilarning bir qismi ishtirok etsa, unda qolganlari o'z joylarida o'tiraveradilar.

3. O'yin paytida band bo'lishi uchun ishtirok etmayotgan o'quvchilarga ham topshiriq berish zarur.

O'yining o'zini boshlashdan avval o'qituvchi darsga yo'l-yo'riqlar berishi zarur, jumladan:

1. Ta'kidlov o'qib berilganidan keyin o'z fikringizga muvofiq tablichkalar yonidan joy egallang.

2. O'z nuqtai nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing.

3. Agar muammoga nuqtai nazaringizni o'zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o'z o'ringizni almashtirishingiz mumkin.

4. Sinfdoshlaringiz ta'kidlariga o'z fikringizni bayon etishga shay turing.

5. O'qituvchi o'yinda ishtirok etmayotgan o'quvchilarga topshiriqlar beradi, masalan:

- ularning fikricha eng ahamiyatli ta'kidlovlarni yozib borish;

-o'yin jarayonida o'z o'rnini o'zgartirmagan o'quvchilarni yozib borish;

-eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish.

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiymiz» metodi

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiymiz» metodi 1987yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf

o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqni ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy printsiplari-komandani taqdirlash, o'quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Erkin fikrlash darslari. Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag'ishlanadi.

Erkin fikrlash darslaridan ko'zda tutilgan maqsad:

1. O'quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.
2. O'quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.
3. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo'yidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq:

- o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga;
- ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;
- o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;
- o'quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga;
- o'qituvchining iqtidori, e'tiqodi, o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Erkin fikrlash darslarini o'tkazish uchun o'quvchilarga ko'pgina ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishni tavsiya etamiz.

Tanqidiy tafakkur

«Tanqidiy tafakkur» uslubi o'quvchi qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. Odatda bunday zarurat muhohasa xarakteriga ega masalalarni hal etayotganda yuzaga keladi masalan: maktablarda yagona maktab formasi kerakmi? Jamoa transportida maktab o'quvchilari uchun bepul yo'lkira joriy etish kerakmi? Va shunga o'xshash masalalar. Bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, baxsli masalalarni hal qilish, taxliliy mushoxada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

«Tanqidiy tafakkur»ni o'tkazish uslubi.

1.O'quvchilarga muhohasa xarakteridagi muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va quyidagi savollar beriladi:

-Nima deb o'ylaysiz?

-Fikringiz qanaqa?

-Sizningcha qanday?

Bu kabi savollar o'quvchi o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

2.O'quvchiga o'z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3.O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtai nazarini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

-Nega bunday deb o'ylaysiz?

-Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

4.O'qituvchi ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo'lgan ta'lim oluvchilarga so'zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Kimda boshqa fikr bor, nega?

-Kim aytilgan fikrni ma'qullamaydi, nega?

5.O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda xar xil nuqtai nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Nega boshqa o'quvchining nuqtai nazarini ma'qullamaysiz?

-O'z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6.Muammoni topshiriq, masala, chalkash masala bo'yicha qabul qilingan qarorga o'quvchilar tomonidan o'z nuqtai nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Sizningcha, kimning nuqtai nazari eng maqbul?

-Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo'l bilan chiqish ma'qulroq?

«Tanqidiy tafakkur» uslubini o'tkazish qoidalari:

1-aniq-raso belgilab qo'yilgan vaqtda o'quvchilar ko'rsatilgan topshiriq yoki chalkash masaladagi rollarni ijro etishlari lozim.

2-rol o'ynalishi natijalariga ko'ra o'yin muhokamasi va baholanishi amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o'yin paytida sodir bo'lganlarni tahlil qilib chiqish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Rolli o'yin o'tkazilayotganda qanday natijalarga erishilishi?

-qaysi muammo tilga olindi, u o'z yechimini topdimi?

-Bordi-yu o'yin shartlari o'zgartirilsa, natijalar qanday bo'lardi?

«Rolli o'yin» uslubini o'tkazish qoidalari.

1. «Rolli o'yin»ni o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya etish lozim.

2. Rolli o'yinda ishtirok etmayotgan o'quvchilar kuzatuvchilar sifatida ishga solinishi yoki yordamchi rollarini (M: bayonnoma yozib boruvchi) ijro etish lozim.

3. O'yin muhokamasi paytida o'quvchilar aytgan fikrlar boshqa nuqtai nazarda bo'lgan o'quvchilar tomonidan nazarda tutilgan reglament doirasida asosli tanqidga yoki muhokamaga tortilishi mumkin.

4.Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerakki, bu narsa g'oya yoki fikrni aniq-raso va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

Ijodiy o'yinlar

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llash va izlash orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash lozim.

M: biologiya darslarida ijodiy o'yinli darslardan «Organik olam evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari», «Organik olam evolyutsiyasining dalillari»ni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar guruhlariga teng bo'linib, ularning har biriga shartli ravishda «Botaniklar», «Zoologlar», «Evolutsionistlar» degan nom beriladi. Har bir «mutaxassislar» guruhi ijodiy izlanib, go'yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni ko'rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib o'z javoblarini asoslaydilar.

Mazkur didaktik o'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar. Avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa o'quvchilarning o'z bilimlariga, iqtidoriga ishonch uyg'otadi. Natijada har bir o'quvchi sidqidildan va jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyatning garovi ekanligini anglaydi va yanada ko'proq bilim olishga kirishadi.

“O'z o'rnini top ” metodi

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1.Sinfning qarama-qarshi burchaklariga 2ta plakat osiladi. Ularning biriga “Roziman”, boshqasiga “Rozi emasman” degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: “Anjir gullaydi va meva tugadi ”, yoki “Anjir gullamasdan meva tugadi ”.

2.Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi talablarga taklif etildi.

4. Bo'lingan o'quvchilardan o'z qarashlarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinfga o'quvchilarning hammasi jalb etiladi.

5. O'quvchilar ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytganini aniqlash so'raladi.

“3x4” texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi) larni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib fikrlab hal etish, echimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni ummlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo(yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, fikrlarni ma'qullay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan avval yakka holda, so'ngra ularni kichik guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoat bo'lib ishlashga, intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga; qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olish o'rganish.

Texnologiyaning qo'llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlariga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

“Muloqot” texnologiyasi

Texnologiyaning tasnifi. Ushbu texnologiya talaba(yoki o'quvchi)larning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda, bunday mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)larni kichik guruhlariga ajratilgan holda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: tanlangan mavzu, muammo asosida talabalarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yoram berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: amaliy, laboratoriya, fakultativ mashg'ulotlarda va darsdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, mashg'ulot jamoa va kichik guruh shaklida o'quv avditoriyasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazilishi mumkin.

O'yin texnologiyasi

O'yin inson faoliyatining mehnat va o'quv turlari bilan bir qatorda turadi va mavjudlikning muhim sharti hisoblanadi.

Ta'rifi: o'yin-bu ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga va yaratishga qaratilgan vaziyatlar sharoitidagi faoliyat turi bo'lib, hatti-harakat ustidan o'zini o'zi boshqarish yuzaga keladi va takomillashadi(Selevko G.K.).

Insoniy amaliyotda o'yin faoliyati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ko'ngil ochish(o'yinning asosiy funktsiyasi-qiziqish uyg'otish, vaqtichog'likni ta'minlash, jonlantirish);
- kommunikativ-muloqat dialektikasini egallash;
- o'z-o'zini namoyish qilish;
- terapevtik(hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni yengib o'tish);
- tashxisli(me'yoriy axloqdan chetga chiqishni aniqlash);
- millatlararo kommunikatsiya: barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallash;
- millatlararo kommunikatsiya:barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallash;
- ijtimoiylashuv(ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish, insoniy hayot me'yorlarini o'rgani).

Faoliyat sifatida o'yin tuzilmasiga maqsadni aniqlash , rejalashtirish, maqsadni joriy etish, shuningdek, natijalar tahlili ham tabiiy holatda kiradi, ularda shaxs o'zini sub'ekt sifatida to'liq namoyish qiladi.O'yin faoliyati motivatsiyasi uning ixtiyoriyligi bilan, tanlash imkoniyatlari bilan va musobaqalashuv unsurlari bilan ta'minlanadi, o'z mavqeini aniqlab olishda, o'z-o'zini namoyish qilishda ehtiyojlar qanoatlantiriladi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasiga kiradi: a) bajarish uchun o'ziga olgan rollar; b) bu rollarni amalga oshirish vositasi sifatida o'yinli harakatlar; v) predmetlardan o'yin uchun foydalanish, ya'ni haqiqiy buyumlarni shartlilari bilan alamashtirish; g) o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi real munosabatlar; d) syujet(mazmun)-o'yinda shartli ishlab chiqiladigan voqelik sohasi.

O'yin o'qitish metodi sifatida avlodlar to'plagan tajribani yosh avlodga yetkazishi qadimdan ma'lum.O'yin o'zbek xalq pedagogikasida, maktabgacha ta'limda, maktabdan tashqari korxonalarda keng tarqalgan.Zamonaviy oliy ta'limda o'quv jarayonini faollashtirishga va jadallashtirishga yo'naltirilgan o'yin faoliyatidan quyidagi holatlarda foydalaniladi:

- tushunchalarni, mavzularni va hatto o'quv predmetining bo'limini egallash uchun alohida texnologiyalar sifatida;
- birmuncha yirik texnologiyaning elementi(ba'zan birmuncha ahamiyatli) sifatida;
- mashg'ulot(dars) yoki uning qismi(kirish, tushuntirish, mustahkamlash, mashq, nazorat)sifatida;
- auditoriyadan tashqari ishlar texnologiyasi sifatida ("Qilni qirq yorib", "Zakovat", KVN va b.)

"O'yinli pedagogik texnologiyalar" tushunchasi turlicha pedagogik o'yinlar shaklida pedagogik jarayonni tashkillashtirish metodlari va usullarining yetarlicha keng guruhini qamrab oladi.

Mashg'ulotlarning o'yinli shakli darsda o'yin usullari va vaziyatlari yordamida yaratilib, talabalarni o'quv faoliyatiga rag'batlash va qiziqtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'yinga oid usullar va vaziyatlarni amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha boradi: didaktik maqsad talabalar

oldiga o'yinli masalalar ko'rinishida qo'yiladi; o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysinadi; o'quv materialidan uning vositasi sifatida foydalaniladi; o'quv faoliyatiga musobaqa unsurlari kiritilib, ular didaktik masalalarini o'yin vazifalariga o'tkazadi; didaktik topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni va mavqei, o'quv va o'yin elementlarini chog'ishtirish ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik o'yinlar funktsiyalari va tasniflarini tushunishiga bog'liq.

Birinchi navbatda o'yinlarni faoliyat turlari bo'yicha ajratish lozim: jismoniy(dvigatelli), intellektualli(aqliy), mehnatiy, ijtimoiy va psixologik.

Pedagogik jarayon xarakteri bo'yicha o'yin quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) o'rgatuvchi, mashq qiluvchi, nazoratlovchi va umumlashtiruvchi;
- b) bilishga oid tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi;
- v) nomahsul, mahsuldor va ijodiy;
- g) kommunikativ, diagnostik, kasbga yo'naltiruvchi, psixotexnik va b.

O'yin metodikasi xarakteri bo'yicha: predmetli, syujetli, rolly, ishbilarmonlik, imitatsion va o'yin-drama.

Predmetli soha bo'yicha o'yinlar: o'quv rejasidagi barcha predmetlar-filosofiya, pedagogika, matematika, sotsiologiya va boshqa fanlarga oid.

Va, nihoyat, o'yin texnologiyalarining o'ziga xosligini ko'p jihatdan o'yin o'tkaziladigan muhit(ob'ekt) aniqlab beradi: predmetli, predmetsiz; stolda, uyda, ko'chada; kompyuterli, televizorli, O'TV; o'lg'a harakatlanishning turli texnik vositalari yordamida.

3-MAVZU; PEDAGOGIK JARAYONDA DO'STONA MUHIT YARATILISHIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI SHAXSI.

O'yin texnologiyalarning maqsadli yo'naltirilganligi

Didaktik maqsadlar: dunyoqarashni kengaytirish, biluv faoliyati; bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash; amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan alohida ko'nikma va malakalarni shakllantirish; mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tarbiyalovchi maqsadlar: mustaqillikni, erkinlikni tarbiyalash, muayyan yondashuvlarni, mavqelarni, axloqiy, estetik va dunyoqarashga oid ustanovkalarni shakllantirish; hamkorlikni, jamoatchilikni, kommunikativlikni, muomalalikni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsadlar: diqqatni, xotirani, nutqni, tafakkurni, taqqoslash, solishtirish ko'nikmasini, o'xshashini topishni, mulohazalashni, ijodiy qobiliyatlarni, refleksiyaning, empatiyaning, maqbul yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish; o'quv faoliyati motivatsiyasini o'stirish.

Ijtimoiylashtiruvchi maqsadlar: jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga aralashuv; muhit sharoitlariga ko'nikish; kuchli ehtirosli nazorat, o'z-o'zini rostlash; muloqatga o'rgatish; psixoterapeya.

O'yin texnologiyasining kontseptual asoslari

O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'z-o'zini namoyish qilish, o'z-o'zini ta'kidlashi, o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini rostlashi, o'z-o'zini joriy qilishi kabi fundamental talablarga tayanadi.

- O'yin-psixogen xulq shakli, ya'ni shaxs tabiatidan kelib chiqadigan ichki mavjud bo'lgan fe'l-atvor ko'rinishidir(D.N.Uznadze).
- O'yin-bolaning "ichki ijtimoiylashuvi" fazosi, ijtimoiy ustanovkalarni egallash vositasi(L.G.Vygotskiy).
- O'yin-tasavvurlashda shaxs erkinligi, "amalga oshmaydigan qiziqishlarni xayoliy joriy etish"(A.N.Leonъtev).
- O'yinda faqat o'z xususiy va ichki mazmuni bo'yicha individ uchun ahamiyatli maqsad kasb etgan harakat amalga oshadi.O'yin faoliyatining asosiy o'ziga xosligi ham ana shunda uning asosiy jozibaligi ham ana shunda (S.L.Rubinshteyn).
- Didaktik o'yin-bu mohiyatan o'zida muayyan motivatsiyani, o'quvchilarning biluv faoliyati tuzilmasini va o'zlashtirishning boshqarish tizimini egallagan yaxlit didaktik jarayondir(V.P.Bespalko).

O'yinga qo'shilish qobiliyati inson yoshi bilan bog'liq emas, biroq har bir yoshda o'yin o'ziga xoslik kasb etadi.SHu boisdan maktabgacha davr uchun, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun, o'rta va katta maktab yoshidagilar uchun va kattalar uchun o'yin texnologiyalari bir-biridan farqlanadi.

O'yin texnologiyasining alohidaligi

Ta'kidlash joizki, didaktik o'yinlar ishbilarmonlik o'yinlaridan tubdan farqlanadi. Keyingi o'qitish vazifasini qo'ymaydi, jarayonlar esa mutaxassislar tomonidan eksperimental maqsadlar uchun o'rganiladi, ya'ni faoliyatning turlicha modellari o'ynalib, boshqa usullar bilan ko'rinmaydigan yakuniy natijalarni ko'radi. Didaktik o'yinlarda esa o'qituvchi uchun barcha natijalar oldindan ma'lum va u o'qitish maqsadida o'tkaziladi.O'yin asosida qurilgan didaktik jarayonlarning farqli alohidaligi shundaki, bu jarayonning motivatsion bosqichida yuqori his-hayojonli stimulatsiya, taklif qilingan o'yinni o'ynash xohishining aniq ifodasi mavjud bo'ladi.

Biz bu yerda **ishbilarmonlik o'yini texnologiyasi** bosqichlarini keltirish bilan chegaralanamiz.

Tayyorgarlik ko'rish bosqichi:

- mashg'ulotning o'quv maqsadi;
- o'rganilayotgan muammo tavsifi;
- qo'yilgan vazifalarning asoslanishi;
- o'yin rejasi;
- o'yin muolajalarining umumiy bayoni;
- vaziyatlar mazmuni;
- rol ijro etuvchilarning tavsifi;
- moddiy ta'minotni tayyorlash;

- maslahat.

O'tkazish bosqichi:

- manbalar bilan ishlash;
- trening;
- aqliy hujum;
- o'yin texnikasi bilan ishlash;
- guruhlarining chiqishi;
- natijalar himoyasi;
- munozara qoidasi 4
- ekspertlar ishi.

Tahlil va umumlashtirish bosqichi:

- o'yindan chiqish;
- tahlil, refleksiya;
- ishni baholash, o'z-o'zini baholash;
- xulosalar va umumlashmalar;
- tavsiyalar.

O'yin texnologiyasining turlari va tuzilmasi, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning o'yin metodlari

Pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan o'yinlar faol o'qitish metodlari sirasiga kiradi, chunki unda, talab, o'quvchining mahsuldor-ta'limiy faoliyati ustuvorlik kasb etadi.

O'quv o'yinlari uchun alohidalik:

- echimning ko'p variantlilik va muqobilliligi, ulardan birmuncha samaralisini tanlashni amalga oshirish talab etiladi;
- noaniqlik sharoitida va shartli amaliyot muhitida yechimni qabul qilish zarurati;
- standart holatdan farq qiladigan o'yinni o'tkazish shartlarining xilma-xilligi, ularning mutaxassisning bo'lajak faoliyatida uchrashi;
- qisqa muddatda o'yinning o'tkazilishi, vaziyatlarni bir necha qayta takrorlash imkoniyati;
- qabul qilinayotgan yechim natijalarining ko'rsatmaliligi;
- nazariy bilimlarni amaliy kasbiy faoliyat bilan integratsiyasi, mutaxassislik bo'yicha malakalarning hosil qilinishi;
- individual o'qitish imkoniyatlarining mavjudligi.

O'yinda talabalarning mahsuldor ijodiy izlanish tafakkuri umumiy holda emas, balki bo'lajak kasbiy faoliyatini bajarishga nisbatan rivojlanadi. O'yin davomida yechim maqbul deb topilsa, uni almashtirish imkoniyati mavjud, bu uchun orqaga qaytilib zaruri qabul qilinadi, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash uchun sinalgan usul bilan taqqoslanadi. Bunda talabalarga turli rollarda bo'lish va o'z yechimlarini taklif qilishlari uchun imkoniyat berish maqsadida o'yin vaziyat bir necha marta qayta takrorlanadi.

O'quv o'yinlari talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy fikrlash qobiliyati va jamoani boshqarish, yechim qabul qilish hamda uni bajarishni tashkil etish malakalarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

O'yin davomida talablarda quyidagi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi:

- yechim qabul qilish uchun zarur axborotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- to'liq bo'lmagan yoki ishonchli axborotlar yetarli bo'lmagan sharoitda yechim qabul qilish, qabul qilingan yechim samarasini baholash;
- muayyan turdagi masalalarni tahlil qilish; bo'lajak kasbiy faoliyatning turli sohalari o'rtasida bog'lanishlar o'rnatish;
- jamoada ishlash, guruhli fikrlash usullaridan foydalanib, birgalikda kelishilgan yechim ishlab chiqish;
- jarayon va hodisalarni tatqiq qilishda tizimli yondashuvdan samarali ijodiy foydalanish asosi sifatida abstrakt va timsolli fikrlash.

O'yinli o'qitish metodi ko'p funktsionalli va insonning turli psixologik xususiyati va sifatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun qo'llanishi mumkin: kasbiy yo'naltirilganlik, aqliy mustaqillik u yoki bu faoliyat sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar: bilish va kasbga oid masalalarni ijodiy uchish, tashkilotchilik va kommunikativ sifatlar, baholash va o'z-o'zini baholash va b. O'yinli o'qitish vazifalari ichida quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim: instrumentalli-ko'nikma va malakalarni shakllantirish; gnostik-bilim va tafakkurni shakllantirish; ijtimoiy-psixologik-talabada kommunikativ sifatlarini shakllantirish. Ta'kidlanganlar bilan bir qatorda o'yinli o'qitishning diagnostik, motivatsion, modellashtiruvchi, tashkiliy va kreativ, nazorat va tuzatish funktsiyalari joriy etiladi.

O'yinli o'qitish metodi- nafaqat qatnashchilarning faolligi bilan, balki an'anaviy metodlarga nisbatan talabalarning katta intellektual va psixologik muhit bilan ham farqlanib turadi. O'qituvchi o'yinli mashg'ulot ishlab chiqib, rejalashtirishi asosida uning didaktik xususiyatlarini aniq tasavvur qilishi va hisobga olishlari zarur.

O'qituvchi uchun didaktik o'yinlar ko'p mehnat talab qiladigan mashg'ulot turidir. Ularni o'tkazishga tayyorlanish o'qitish jarayonini chuqur anglash orqali pedagogdan ko'p vaqt sarflashini talab etadi. Pedagogik tajribalar tahlili, 15 kishilik guruh bilan 1soat muayyan vaziyatlar ustida ishlash o'rtacha murakkablikda 12-15soat tayyorgarlik ishlarini talab etadi.

Savol tug'iladi: o'yin metodlari murakkabligi bilan, ishlab chiqishga ko'p vaqt va kuch sarflanishi bilan sermashaqqat emasmi? An'anaviy tarzda ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlarni o'tish yengil-ku? Agar o'yinnning barcha afzalliklarini taroziga qo'ysak, unda ularni qo'llashdan keladigan foyda, ishlab chiqarishdagi xarajatlarni sezilarli darajada qoplashi mumkin. Albatta, o'yinlarni ishlab chiqishning maqbulligi o'quv fanlarining hajmi, ularni o'rganishda yechiladigan maqsad va vazifalarga, talabalarni kasbiy tayyorlash hissasiga bog'liq bo'ladi.

O'yinlarni o'tkazish metodi sifatida baholashda quyidagi holatlar hisobga olinishi zarur:

- birinchidan, o'yinlar boshqa o'qitish metodlariga nisbatan bitta rad etib bo'lmaydigan afzallikka ega: olingan bilimlarni tanlagan kasbga muvofiqligini ta'minlash xususiyati;
- ikkinchidan, bir marta ishlangan namunali o'yin qator yillar davomida o'qitishning samarali instrumenti sifatida talabalarning bir necha avlodlariga xizmat qilishi mumkin. Albatta, o'yinlar mazmuni fanning mazmuni o'zgarishiga mos ravishda yangilanib borishi lozim;
- uchinchidan, o'qitishning o'yin metodlari talabaning kasbiy faoliyatni egallashi va bilimlarni to'g'ridan to'g'ri aralashuvsiz yoki pedagog yordamisiz o'zlashtirishni ta'minlaydi, bu faoliyat mazmuni qiziqtirishning kuchli vositasi hisoblanadi;
- to'rtinchidan, shartli amaliyot holatida mas'uliyatli yechim qabul qilish ko'nikmasini egallashning maqsadli ekanigini baholash qiyin. O'yinda bo'lajak mutaxassislarning mustaqil kasbiy faoliyatga o'tishda yuzaga keladigan faol xatoliklarini yo'qotish mumkin;
- beshinchidan, o'yinda o'qitish jarayoni tadqiqot vazifalari bilan samarali biriktirilishi mumkin, bu holat talabalarga harakatdagi tadqiqotchilik metodikasini namoyish qilishga imkon beradi. SHu boisdan o'yinni o'tkazish rejasini ishlab chiqishda tadqiqotga tegishli bo'lgan qator savol(muammo)lar, shuningdek, o'yin qatnashchilaridan alohida guruhni ajratish va unga xususiy natijalarni o'lchash va qayd etish vazifasini yuklash oldindan qaraladi;
- oltinchidan, bo'lajak mutaxassis uchun muammoni qo'yish, yechimni guruh bo'lib tanlashda individual ustuvorligi va uni joriy etishni kelishish tajribasini egallash alohida ahamiyat kasb etadi;
- ettiinchidan, o'yin guruhli tafakkurlashni rivojlantiradi, jamoa tarkibida harakatlanish ko'nikmasini tarkib toptiradi;
- sakkizinchidan, o'yinlar(sinov stendida tekshirayotgan kabi) boshqarishning yangi shakl va qoidalari tuzilmasini, me'yori va metodikasini sinovdan o'tkazishga sharoit yaratadi.
SHunday qilib o'yinlar keng didaktik imkoniyatlarga ega. Ular yordamida favqulodda keng spektrdagi ko'nikma, malaka va kasbiy shaxs sifatlarini shakllantirish mumkin. Bu esa o'yinga tayyorgarlik va o'tkazishning qanday tashkil etishiga, uning asosiga o'qituvchi(yoki ishlab chiqaruvchi) tomonidan qanday motivlar qo'yilishiga bog'liq.

O'yinli o'qitish metodlarining yuqori samaradorligi an'anaviy metod bilan taqqoslaganda **jiddiy afzalliklar bilan farqlanadi. Ularning ba'zilarini ajratib ko'rsatish mumkin:**

- qabul qilingan yechim natijalarining aniqligi: o'yinda batafsillikka ahamiyat bermaslik, informatsion salmoqdan ishga taalluqli

bo'lmagan real jarayonlar xususiyatlaridan kelib chiqadigan "shovqinlarni o'chirish mumkin;

- vaqtning o'zgaruvchanlik ko'lamini: o'yin "tez" yoki "sekin" tarzda voqea borishini boshqarishga imkon beradi. SHartli amaliyot holatida tuzildigan o'yinda, bir necha soat yoki bir necha yil "yashash" mumkin;
- ko'rsatmaning o'zgarishi: o'qitish davomida malakalarning to'planishi bilan tajribani takrorlash: bir vaziyatning o'zini har gal yechimga yangicha yondashgan tarzda bir necha marta qayta o'ynash mumkin;
- qamrab olish ko'lamini o'zgartirish imkoniyatining mavjudligi turli sharoitlarda jiddiy yechimlarni izlab topish muddatini yetarlicha qisqartirish mumkin.

O'quv rejasiga o'yin darsini kiritish yechimi mutaxassis bo'yicha o'qitishning umumiy grafikasini ishlab chiqish bosqichida qabul qilinadi. Bundan oldin mutaxassis tayyorlashning tugunli nuqtalari va ularga oid o'yinli o'qitish metodini qo'llash maqsadga muvofiq belgilab olinadi. Ularni o'quv rejaga shunday joylashtirish lozimki, har mashg'ulot bir fan bo'yicha emas, balki bir necha aralash o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarni jamlashni talab etsin. Bunda o'yin mashg'ulotlari pastki kurslardan yuqoriga o'tishi davomida takomillashib borishi, mumkin qadar amaliyotda uchraydigan real voqealikalarni qamrab olishi shart.

Har bir semestrda 2-3o'yinni rejalashtirish va o'tkazish, bunda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, kasbiy rollarni ijro etish, imitatsion mashqlar bajarish kabi o'yin mashg'ulotlarini tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'yinni o'tkazish vaqtini rejalashtirishda mashg'ulotlar jadvaliga qo'yiladigan **umumiy talablardan** tashqari quyidagi **jihatlarini** ko'zda tutish lozim:

- o'yin asosiy kurs ma'ruzalari o'qilgan va talabalar unda ishtirok etishlari uchun nazariy jihatdan tayyor bo'lgach, rejalashtirilgani ma'qul;
- o'yin uchun alohida boshqa mashg'ulotlar bilan yuklanmagan kunlarni ajratish tavsiya etiladi, sababi qatnashchilarning diqqat va e'tibori o'yinda to'planishi lozim. Agar o'yin 2 yoki 4 soatga mo'ljallangan bo'lsa, unda uni o'quv yakunida yakunlash maqsadga muvofiq, chunki talabalar o'yindan keyin rollardan tez chiqib ketib, boshqa o'quv fanlariga tezda o'tisha olmaydi;
- o'yin ta'lim oluvchilarning ko'p vaqti va diqqatini oladi, shuning uchun o'tkazish vaqti semestrda bajariladigan ishlarning umumiy jadvali bilan moslashtirilishi zarur.

O'quv o'yinlarini o'tkazishda informatsion ta'minot muhim rol o'ynaydi, u qator tashkil etuvchilardan iborat:

- o'yin mashg'ulotlariga kiritiladigan vaziyatlarning tavsifi;
- o'yinni o'tkazish vaqti va uning murakkabligi hamda ahamiyatini hisobga olgan natijalarni baholash mezonlari;
- o'yin mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish mezonlari;

- o'yin mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish hujjatlari;
- me'yoriy va sonli ma'lumotlar.

O'yinli vaziyatlar o'yin mashg'uloti dasturining asosini tashkil etadi va batafsil uning tavsifini qamrab oladi.

O'yinni o'tkazish vaqtida o'qituvchi va talabalarning haq-huquq va vazifalari, alohida bosqichlar ketma-ketligi, mazmun va vaqt bo'yicha taqsimlanishi, qadam va bosqichlar qatnashchilarning o'zaro harakatlanish tartibi qayd etiladi.

O'yinni informatsion ta'minlashning muhim tarkibi hujjatlashtirish hisoblanib, qatnashchilarga qabul qilinadigan yechimlarni sinchiklab o'rganish uchun beriladigan dastlabki va rejali hujjatlarni va bu yechimlarni bajarish natijalari qayd etilgan hisobot hujjatlarini mujassamlashtiradi.

Me'yoriy va sonli ma'lumotlar, o'yin mashg'ulotida qatnashchilar foydalaniladigan hujjatlarning maxsus to'plamidan iborat bo'ladi.

O'yin samarasi o'qitish metodi sifatida an'anaviydan ko'ra, moddiy texnik ta'minotga bog'liq bo'lib, uning tarkibiga auditoriya, o'yin uchun maxsus jihozlar, ma'lumotlarni aks ettiruvchi vositalar, boshqarish vositalari, trenajerlar, hisoblash texnikalari va h.k. Tabiiyki, moddiy texnik ta'minot tarkibi va joylashish o'yin mashg'uloti shakli, qatnashchilar soni va boshqa qator omillarga bog'liq bo'ladi.

O'yinlarni o'tkazish tajribasini o'rganish va umumlashtirish davomida qator muammolarga duch kelindi: o'yin rahbari butun o'yin davomida talabalarni uzluksiz ishchi yuklama bilan ta'minlashi zarur. Takomillashuv ko'pchilik yechimlarning izchil qabul qilinishi, o'yinni boshqarishning mantiqiy tartibi bilan bog'liq.

Yana bir muammo har bir o'yin ishtirokchisining individual ishlarini ob'ektiv baholash hisoblanadi, o'yin natijasi ko'p hollarda aniq bir talaba faoliyati bilan bog'liq emas. Bu muammo o'yinda o'qituvchining faol ishtiroki bilangina yechilishi mumkin, bu holatda talaba (o'quvchi) qobiliyati to'g'risida birmuncha to'liq tasavvur hosil qilinishi va bu xulosalardan natijalarni baholash uchun foydalanishi mumkin.

O'yin jarayonining samarasini oshirishda o'yinning yakuniy bosqichi, ayniqsa xulosani muhokama qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribalarga ko'ra, agar o'yin so'ngida muhokama o'tkazilmasa o'yin davomida egallangan ko'nikmalar tezda yo'qoladi. O'z navbatida o'yin natijasida oldindan u yoki bu natijalarning sabablarini ochib beradigan yakuniy muhokama o'yinning o'zi singari juda zarur hisoblanadi.

Yakuniy muhokamani konferentsiya metodi bilan o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lsa, har bir talabada(o'quvchi) bunday mashg'ulotning metodik zarurati to'g'risida o'z fikrini bildirishga imkon tug'iladi. Albatta konferentsiya o'qituvchining chiqishi bilan yakun topadi, bunda nafaqat umumiy yakun yasaladi, balki har bir o'yin ishtirokichi-talaba(o'quvchi) favoliyati bilan baholanadi.

“Charxpalak” texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya talaba(yoki o'quvchi)larni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talaba(yoki o'quvchi)larning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: talaba(yoki o'quvchi) larni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni talab(yoki o'quvchi) lar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam(yoki flomaster) lar.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash) ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talaba(yoki o'quvchi) larni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratish;
- talaba (yoki o'quvchi) mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi(ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirilgan materiallarni (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida)tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

- o'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;
- har bir talaba(yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda talaba(yoki o'quvchi)lar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, talaba(yoki o'quvchi) ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30ta bo'lib, javoblarning 17-20tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, talaba(yoki o'quvchi) ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. SHu bilan birga, javoblarning 21-24tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa talaba(yoki o'quvchi) materiallarni o'zlashtirgan darajasi "yaxshi" bahoga, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa "a'lo" bahoga o'zlashtirgan deb hisoblanadi. Talaba(yoki o'quvchi)lar baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho(ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

"CHarxpalak" texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun talaba (yoki o'quvchi)larga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

Vazifa. O'qituvchining muomala va munosabatni boshqarishdagi harakatlari qaysi boshqaruv usuliga mansub ekanligini aniqlang va ularga beradigan tavsiflarini ilovada keltirilgan jadvalga kiriting.

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN EVRISTIK TEXNOLOGIYA

Muhayyo Inoyatova Egamberdievna, O'zPFITI, p.f.n.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik texnologiya - muammoli o'qitish tizimidagi asosiy texnologiyalardan biri bo'lib, o'quvchilarga uzluksiz ravishda o'zlari uchun yangiliklarni kashf etishga imkon yaratadi. Evristika — grek. heurisko — "izlayman", "topaman", "kashf etaman" degan ma'noni bildiradi, u "evrika" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, grek. "heurisko" - "topaman" deganidir. SHunga ko'ra, evristik texnologiyada o'quvchida ijodkorlik, yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantirish g'oyasi yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, evristik texnologiya negizini savol-javob shaklidagi suhbatlar tashkil etib, bunda o'qituvchi bolalarga tayyor bilimlarni bermay, balki o'quvchilarning avval egallagan bilimlari, hayotiy tajribalari, kuzatishlariga tayangan holda, oqilona savollar orqali ularga yangi tushunchalar, xulosa va qoidalarni o'zlari ochishlari (kashf qilishlari)ga sharoit yaratadi.

Ijodiy layoqatlar – bu shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon etilishi bo'lib, shaxsning layoqatlari yangilikni yaratish, favqulodda qarorlar qabul qilishida ko'rinadi. Turli olimlar va metodistlar evristik metodni turlicha talqin etadilar va

nomlaydilar. Masalan, izohlovchi suhbat, rivojlantiruvchi suhbat, evristik metod, analitik usul, suqrotona suhbat, qisman izlanish usuli kabilar.

Uning negizi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi Gretsiyada evristik ta'lim-tarbiya yo'naltiruvchi savollar orqali bilim va tarbiya berishni anglatgan. Ushbu atamani eramizdan avvalgi 300-yilda qadimgi grek matematik olimi Papp Aleksandrskiy fanga olib kirgan, bu bilan u mahsuldor ijodiy tafakkur negizida kashf etish yoki aksincha rad qilish mumkinligini nazarda tutgan. Undan ilk marta qadimgi grek faylasufi Suqrot mohirona foydalanib, pedagogikaga "Suqrot suhbatlari" atamasini olib kirgan. U hech vaqt tayyor javoblarni taqdim etmagan, balki suhbatdoshini savollar berish yo'li bilan haqiqatni (bilimni) mustaqil kashf etishga, muammoning yechimini mustaqil topishga yo'llagan. Suqrot hech vaqt o'zini suhbatdoshidan ko'ra bilimdon deb bilmagan, binobarin, u hamsuhbat shogirdiga o'z-o'zini ruhan kashf etishga yordamchi deb hisoblagan, xolos. «Haqiqat alohida bir insonning miyasida paydo bo'lib qolgan mavhum narsa emas, u haqiqatni izlayotgan kishilarning o'zaro muloqoti (dialogi) jarayonida kishilar orasida vujudga keladi» (Suqrot)

Suqrot metodi keyinchalik Ya.A.Komenskiy, A.Disterveg, I.G.Pestalotstsi, Dj.D'byui va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan.

Evristik texnologiyalar afzallik bilan birga, kamchiliklarga ham ega bo'lgani sababli undan keragidan ortiq darajada foydalanib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida uning kamchiliklarini boshqa usullar yordamida bartaraf etish hamda bu usuldan oqilona foydalanish kerak. Quyida ularning bir qanchasini ko'rib chiqamiz: Bunda avval qo'yilgan muammoni tezlik bilan yecha olishga qiyinaladigan o'quvchilarga yordam berish kerak. Bunday o'quvchilarda muammoni tez yechish uchun zarur ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga harakat qilish lozim.

Darsda u qadar qiyin bo'lmagan muammolarni hal qilib, birmuncha murakkabroq masalalarni uyga vazifa sifatida topshirish mumkin. Uy sharoitida o'quvchining yetarlicha vaqti bo'ladi va o'z tafakkur tezligi doirasida hayajonlanmay fikrini to'lig'icha muammoning yechimiga qarata oladi.

Ona tili va adabiyot ta'limida o'qituvchi avvaldan evristik suhbat uchun kerakli muammo yoki savollar tizimini tuzib chiqadi. Topshiriq ochiq xarakterda bo'lib, uning barcha uchun birdek yagona "to'g'ri" javobi bo'lmasligi kerak) evristik shakldagi mashg'ulotlar tizimidan foydalanish mumkin. Ular: g'oyani taqdim etish, evristik suhbat, topshiriq tuzish darslari, tushunchalarni konstruksiyalash, ishchan o'yinlar, evristik ma'ruza va seminarlar, konferentsiyalar, ijodiy ishlar himoyasi, refleksiv mashg'ulotlar bo'lishi mumkin.

Evristik texnologiyaning afzallik va kamchilik jihatlari:

Afzalligi:

- ushbu texnologiya o'quvchilar fikriy faoliyatini faollashtirish, qiziqishlarini o'stirish, o'quv materialini puxta o'zlashtirishlari uchun qulay hisoblanadi.

Kamchiliklari:

1. U tayyor bilimlarni shunchaki taqdim etishga nisbatan ko'proq vaqt sarflashni talab qiladi.

2. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning individual farqlariga noxush ta'sir kuzatilishi mumkin: ularning aksariyati qo'yilgan muammoni yechishga, o'qituvchining savollariga javob topish va qaytarishga ulgura olmaydilar. O'qituvchi esa o'quvchilarning barchasi kerakli xulosaga kelishi uchun kutish imkoniga ega emas.

3. Evristik suhbatlarda alohida o'quvchilargina faol ishtirok etib, qolgan o'quvchilar passiv pozitsiyada qolib ketishlari mumkin.

Adabiyot darslarida evristik texnologiyani qadam-baqadam qo'llash (A.Qahorning "Dahshat" hikoyasi asosida o'quvchilarda hikoya haqida adabiy tushunchani tarkib toptirish):

Darsning maqsadi:

1. Hikoyaning bosh masalasi uning badiiy to'qimasiga qanday qilib singdirilganligini ko'rsatish;
2. O'quvchilarda adabiyot nazariyasiga xos atamalar va matnni badiiy tahlil qilish malakasini o'stirish.
3. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, material haqida fikr yuritishga o'rgatish.
4. Guruhda ishlash, boshqalarning fikrlarini tinglay bilish, olingan axborotlarni tahlil etish ko'nikmalarini o'stirish.
5. Monologik nutqni o'stirish.

Darsning jihozlanishi: musiqa, tarqatma material.

Metodik usullar: o'qituvchining kirish so'zi, suhbat, guruhda ishlash, o'quvchilarning chiqishlari.

1-qadam:

Tashkiliy qism – 2 min.:

O'qituvchi o'quvchilarni 6 ta (har bir guruhda 5 ta o'quvchi) guruhga bo'ladi. Har bir guruh kartochkada topshiriq oladi. O'quvchilar savollarga javob berishi va o'z mavzusi bo'yicha xulosalarni taqdim etishi lozim. Bolalar 5 balli tizim asosida guruh a'zolarining ishtirok etish darajasini belgilab olishlari kerak. Har bir guruh o'ziga spiker va kotib (a) saylaydi. Spiker ma'lumotlarni taqdim etadi, kotib (a) yozuvlarni rasmiylashtirishga ko'maklashadi.

2-qadam:

Mavzu bo'yicha ishlash.

O'qituvchi yangi dars mavzusini e'lon qiladi va darsning maqsadi haqida qisqacha ma'lumot beradi (1 min.).

3-qadam:

Adabiy atamalarni takrorlash (7 min.)

- Asar kompozitsiyasi nima?

(asarning qurilishi.Tugun, harakatning rivojlanishi, kulminatsiya, yechim. SHuningdek. epilog, prolog.va b.)

- Hikoya nima?

(hikoya – bu o'tkir syujet va kutilmagan xotimaga ega bo'lgan kichik voqealar tizimi. Hikoyalar turli mavzularda bo'lishi mumkin: masalan bolalar hayoti, jonivorlarning kun kechirishi, yumoristik va b.).

4-qadam

Guruhda ishlash.

Mashg'ulot jarayonida mashg'ulot ruhiga mos musiqadan foydalaniladi. Mustaqil ishlash uchun 28 minut, guruhning har bir a'zosining chiqishi uchun – 3-5 min. vaqt ajratiladi.

1-guruh uchun topshiriqlar:

Hikoya kompozitsiyasining xususiyatlarini aniqlang.

Hikoya nechta qismdan tashkil topgan?

Nima uchun muallif hikoyani aynan shunday shaklda tuzgan?

Ikkinchi qismning kompozitsiyasi qanday tuzilgan? Uning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

Hikoya voqealari qay tarzda rivojlanib borgan.

Xulosalar chiqaring

(hikoya 2 qismdan iborat) Birinchi qism ikkinchisi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Birinchi qismda muallif uzoq vaqt davom etib, dillarga g'ashlik solgan kuzak shamolining sirli va noxush tavsifini keltiradi, tasvirda “shamolning darchalarga bosh urib, uf tortishi” uy ichidagi odamlarga tahid solayotgan xavfdan darak beradi. Ikkinchi qism Unsinning o'z uyiga kirishi bilan boshlanib, Unsinning murdasi ortilgan aravaning qishloqdan uzoqlashish tasviri bilan xotimalangan. Kompozitsiya tadrijiy rivojlanish ko'rinishiga ega. Bu bilan muallif voqealarning shiddat bilan o'sib rivojlanib borganini ko'rsatgan).

2- guruh uchun topshiriqlar.

Hikoyadagi vaqt va makon tushunchalarini aniqlang.

Unsinning ona yurti (Ganjiravon) dodhoning xonadonidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Dodho xonadonidagi muhitni nimaga o'xshatish mumkin?

Hikoyada shamol va dodxo uyining darchasi bilan bog'liq o'rinlar vaqt va makon tushunchasini aniqlashda qanday o'rin tutgan?

Hikoyada yana qanday makon (hudud) tasviri mavjud?

Xulosa chiqaring.

(ona yurti Unsinga ota-onasi va dugonalarini yodiga soladi, dodxo uyi bo'lsa sovuq va dahshatli bo'lib, unda ko'ziga o'lim ko'rinayotgan dodxoning o'lim va go'riston haqidagi so'zlarini tinglashga to'g'ri keladi. Hikoyada muhim o'rin tutgan yana bir hudud qabriston bo'lib, u qorong'ida do'ppayib turgan qabrlari bilan juda vahimali ko'rinadi. Bu yerda qattiq qo'rquv iskanjasida qolgan yosh qizning o'takasi yorilib, salomatligiga jiddiy zarar yetadi. Dodxoning zulmidan qo'rqadigan xotinlari Unsinni himoya qila olmaydilar. Bu xonadon yoshgina Unsinni qabrga yo'llaydi).

3-guruhga topshiriqlar.

Hikoya epitetikasi.

1. Hikoya boshidagi qaysi tasvirdan bola taqdirining fojeali bo'lishini bilib olish mumkin?

2. Go'ristonga borgan Unsin qanday hissiyotlarni qalbidan kechirdi?

3. “Dahshat” so'zi nimani bildiradi?

4. Unsin obrazini tasvirlashda muallif qanday vositalardan foydalangan?

Xulosalar chiqaring.

(Hikoya boshida muallif kuzak shamolining daraxt va tomlarga urilib, chiyillab uvillagani, yopiq eshik va darchalarga urilib, uf tortganini tasvirlaydi. Bu epitetlar kitobxonga hikoyaning fojeali yakun topishini bildiradi. Go'ristonga borgan Unsin qo'rquvga tushadi, murdalar ortidan qarayotgandek bo'lib, dahshatga tushadi. «dahshat» so'zi «xunuk», «yaramas», qo'rqinchli» kabilarni bildiradi, Unsinni tasvirlashda muallif uning yoshligi, qiz bolalarga xos nozik jihatlarini tasvirlovchi ifodalardan foydalangan: «mushtday boshi bilan», «bozvonti (sochpopugi)dagi tangalarni o'ynab», «dadasidan katta hayitlik olib, bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab » va b. Epitetlar asarda katta ahamiyatga ega. Muallif ular ko'magida Unsinning himoyasizligi, vaziyatning umidsizligini ko'rsatadi).

4- guruh uchun topshiriqlar.

Hikoyadagi ramziy ifodalar:

1. Hikoyada "Dahshat" so'zi qanday ma'no kasb etgan?
2. "Tiriklar go'ristoni" tasviri asarda qanday mazmunga ega?
3. "Xuddi o'lim xavfidan qochganday, bir irg'ab sandalni ochdida, o'zini eshikka urdi" jumalari Dodxoning qanday odam ekanligini ko'rsatadi?
4. Hikoyada shamol nima uchun barcha narsalarni buzib yubormoqchidek chiyillab, g'uvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi?

Xulosalar chiqaring.

(Dodxoning xonadoni uning sakkiz xotini uchun tiriklar go'ristonidek gap. CHunki ular bu yerda tutqunlikda yashashadi. «Balo-qazodek tikilib turgan dodxo» Unsinga tahdid solayotgan ajal, o'limning ko'lankasi. Unsin unga qarshi tura olmasligi aniq. «Ganjiravon orzusi» - bu shunday hissiyotki, Unsin u orqali o'z maqsadiga erishishni xohlaydi. SHunday qilib, Abdulla Qahhor Unsinnning orzusiga qarshi turgan kuchning qanchalik qudratli va ayni vaqtda chirib borayotganligini ko'rsatadi.

"Xuddi o'lim xavfidan qochganday, bir irg'ab sandalni ochdida, o'zini eshikka urdi" jumalari Dodxoning aslida juda qo'rqq odam ekanligini ko'rsatadi, Dodxo o'limdan qo'rqadi. SHuning uchun so'nggi daqiqalarini yashayotgan Unsin unga azroilni eslatadi. Unsinning yosh umrining bevaqt xazon bo'lishiga dodxo sababchi. Dodxo umri davomida juda ko'p gunoh ishlar qilgan. Xonadonida ayollarni quldek ishlatgan, ularni urib, nafsoniyatini yerga urgan. Dodxo – qotil. Qotil esa o'z qurbonini ko'rganida seskanishi va qochishi tabiiy.

(«chiyillash», «vishillash», «bosh urib uy tortish» so'zlari va iboralari parranda, ilon va insonga xos harakat xususiyatlarining bo'rttirib, ko'chma ma'noda tavsiflanishi bo'lib, ularda shamolning vayron qila oluvchi kuch-quvvati ko'rsatilishi bilan birga, hikoya davomida yuz beradigan falokatga ishora qiladi).

5-guruh uchun savollar.

Hikoyaning janr xususiyatlari.

1. Ushbu hikoyaning qissadan farqi nimada?
2. Nima uchun hikoyadagi voqealar qaysi davrda yuz bergan?

3. Hikoya so'nggida Nodirmohbegim nima uchun "bu dargohni yelkamning chuquri ko'rsin" deganday keskin burilib aravaga o'tiradi?

4. Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasi "O'tmishdan ertaklar" nomli hikoyalar turkumiga kiritilgan. Nima uchun Abdulla Qahhor ushbu hikoyani shu turkumga kiritgan?

Xulosalar chiqaring.

(Mazkur hikoyada asosan 3 ta asosiy qahramon ishtirok etadi. Uning syujet chizig'ida murakkab voqealar tizimi mavjud emas. Qissada esa qahramonlar soni ko'p bo'lib, voqealar ham birmuncha ko'proq bo'ladi. Hikoyadagi voqealar o'tmishda, hali ayollarning haq huquqlari jamiyat tomonidan himoya qilinmagan paytda yuz bergan. Nodirmohbegim dodxoning to'ng'ich xotini bo'lib, umrini shu dargohda o'tkazib, qarib yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsada, o'zi o'rganib qolgan hayot tarzida voz kechadi. Chunki bunday hayot ayollar uchun koni azobning o'zginasidir. Abdulla Qahhor Nodirmohbegim obrazi orqali barcha ayollar uchun birdek ayanchli bo'lgan o'tmishdagi ayollar haq- huquqlarining yerga urilganini qoralamoqda. Ayollar haq-huquqini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar amal qilayotgan bugungi kunda "Dahshat" hikoyasidagi voqealar biz uchun mudhish bo'lsada, ertakka aylangan. Biz shunday voqealar qachonlardir bo'lganiga ishonishni ham istamaymiz).

5- qadam. Yakuniy suhbat. 5 min.

Barcha o'quvchilarga savollar:

Abdulla Qahhor bu ta'sirli hikoyani nima sababdan yozgan? Bu bilan o'z kitobxonlariga nimalarni uqtirmoqchi bo'lgan?

Ayollarga munosabat millatning bugungi kuni va istiqbolini belgilaydi. Ularga shunday befarq munosabatda bo'lgan davlatni baxtli istiqbol kutayotganiga ishonib bo'lmaydi. **Uyga vazifa. 2 min.**

«Ayollarning haq-huquqlari, jamiyatimizda ayollarga munosabat masalasi» mavzusida ijodiy insho yozing.

"Zinama-zina" texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi) larni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi. Talab(yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruza(imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi) larni mavzular soniga qarab 3-5kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul);
- talaba(yoki o'quvchi)lar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- o'qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar.Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.
- Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materialar, albatta, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;
- O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: o'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi talaba(yoki o'quvchi) larni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma(yoki rasm, chizma ko'rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

Ilova(misol tariqasida)

T/r	Mavzu	Temperament
1	Xolerik	
2	Sangvinik	
3	Melanxolik	
4	Flegmatik	

**FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSЛИKLAR VA O`QUV
QO`LLANMALAR RO`YXATI. ASOSIY DARSЛИKLAR
VA O`QUV QO`LLANMALAR**

1. Umumiy o`rta ta`limning davlat standarti va o`quv dasturi "Sharq" nashriyoti matbaa konserni 1999 yil 6- maxsus son.
2. Barkamol avlod orzusi "Sharq" nashriyoti matbaa konserni bosh taxririylati, Toshkent 1999 yil.
3. Omonullaev D. "Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan ma`ruzalar kursi". Toshkent - 1990 yil.
4. Sharipova G.M. Musiqa tarbiyasi metodikasi Toshkent -2008 yil
5. O`zbekiston Respublikasining institutlari mutaxassislariga oid me`yoriy xujjatlar to`plami . Toshkent -1997 -1999 yil.
6. Bolalar bogchasida musiqa va boshka metodik ko`llanmalardan foydalanildi Toshkent- 1995 yil "O`qituvchi" nashriyoti.
7. Boychechak O`zbek xalq ijodi 1984 yil Adabiyot nashriyoti.
8. O.A. Ibroximov.O`zbek xalq musiqa ijodi Toshkent- 1994 yil.
9. O`zbekiston tarixi. darslik kitoblar (5-11 sinflar).
10. Xorshunoslik Sh.Ro`ziev G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti Toshkent- 1987 yil.
- 11.19. Musiqa madaniyati fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o`tkazish yuzasidan tavsiyalar. 1-7 sinflar Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2005 yil.
12. M.Karimov, M.Ikromova Raqs elemenlari orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish, Toshkent - ILM ZIYO -2008 yil.
13. D.Karimova "Musiqiy pedagogik mahorat asoslari". Toshkent Iqtisod moliya 2008yil.
14. R.J.Ishmuxammedov. Innovasion texnologiyalar yordamida ta`lim samarador ligini oshirish yo`llari. Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU 2004 yil.
15. X.Nurmatov, N.Norxo`jaev. Musiqa 2- sinf. Toshkent F.Fulom. 2003 yil
16. X.Nurmatov, N.Norxo`jaev. Musiqa 3- sinf. Toshkent F.Fulom. 2003 yil
17. O.Ibrohimov, J.Ibrohimov. Musiqa 5- sinf. Toshkent F.Fulom. 2003 yil
18. Z. A.Mansurov. D.Karimova. Musiqa 5- sinf. Toshkent F.Fulom. 2004 yil
19. S.Begmatov va boshqalar. Musiqa 6- sinf. Toshkent F.Fulom 2002 yil.
20. O.Ibrohimov. J.Sadirov. Musiqa 7- sinf. Toshkent F.Fulom 2003 yil.
21. ZIYO/NET.

MUNDARIJA

1.Kirish, Musiqa o`qitish innovatsion texnologiyalari fani haqida umumiy tushuncha.
2-6

2.O`quvchi shaxsining rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy psixologik va do`stona
muhit yaratishning pedagogic shart-sharoitlari 7-19

3.Pedagogik jarayonda do`stona muhit yaratilishida o`qituvchi va o`quvchi shaxsi
20-30